

Mamlakatimizda Investitsiya Faoliyatining Iqtisodiy Samaradorligi

A. Ernazarov Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

F. Xafizov Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O. N. Xaitov Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Anotatsiya: Ushbu maqolada respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizasiya qilish, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, shuningdek, joylarda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi ishlab chiqilishi belgilab olindi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari.

Mamlakatda yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarish obyektlarini barpo etish maqsadida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, chet el investitsiyalarini faol jalb qilish, investitsiya iqlimini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish, biznesni jadal rivojlantirish uchun asos sifatida investitsiya va tashqi savdo faoliyatini samarali tartibga solish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizasiya qilish, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, shuningdek, joylarda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi ishlab chiqilishi belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, "Investitsiyalar - qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar" deb hamda "Investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga

oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui” deb ta’rif berilgan.

Investisiya faoliyatini davlat tomonidan qanday tartibga solinadi va qanday usullarda degan savol bo‘lishi mumkin. Demak, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasini va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta’minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi turli investitsiya obyektlariga qo‘yilmalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta’minlash maqsadida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Usullari esa:

- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilar orqali amalga oshiriladi;
- investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolatlarini taqdim etish;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini barpo etish;
- asosiy fondlarni tezlashtirilgan amortizasiya qilish huquqini berish;
- texnik jihatdan tartibga solish normalari, qoidalari va talablarini belgilash;
- raqobatni qo‘llab-quvvatlash choralari qo‘llash;
- yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni amalga oshirish, shuningdek boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash qulay investitsiya muhitini yaratish, yangi raqobatbardosh hamda innovatsion, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga doir investitsiyalarni rag‘batlantirish, mavjud ishlab chiqarishlarni zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan hamda zamonaviy boshqaruv tajribasini joriy etgan holda kengaytirish va yangilash maqsadida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki kabi yirik xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Olib borilayotgan faol tashqi siyosat natijasida respublikamizga investitsiya kiritayotgan mamlakatlar geografiyasi ham kengaymoqda. 2022-yilga kelib, iqtisodiyotimizga investitsiya kiritgan mamlakatlar soni 50 dan ortdi. Ularning orasida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda.

Mamlakatimizga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017-yilda 3,3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko‘rsatkich uch barobar ortib, 9,8 milliard AQSh dollariga yetdi. Buning natijasida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi 23,8% dan 40,5% gacha ortdi. Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017-yilda 2,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 3,4 barobar oshdi va 8,5 milliard AQSh dollariga yetdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi esa 17,7% dan 35,4% gacha oshdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni ham yil sayin ortib bormoqda: 2017-yilda 5,5 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, ularning soni 15,8 mingtaga yetdi. Buning 6,4 mingtasi qo‘shma korxonalar, 9,3 mingtasi to‘liq xorijiy korxonalar hisoblanadi. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning 30,5% savdo, 27,5% sanoat, 8,0% qurilish, 4,8% qishloq xo‘jaligi, 4,1% yashab turish va ovqatlanish muassasalari, 2,9% saqlash va tashish, 4,8% aloqa va axborot yo‘nalishlarida, 17,4% boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda.

Yuqoridagi investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishga erishish ko‘plab sohalar, tarmoqlar hamda hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishi va tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga ulkan poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu investision

ko'rsatkichlar samaradorligi faqat iqtisodiy samara uchungina emas, balki ijtimoiy natijaga ham qaratilishimomkinligi olimlar tomonidan ilgari surilmoqda.

Xulosa o'rnida aytganda, investorlar, korxonalar, tashkilotlar tomonidan mamlakatga ulkan investitsiya loyihalarining kiritilishi natijasida yurtimizda ko'plab yangi ish o'rinlari vujudga keladi. Shu bilan birga, zamonaviy bilimlarni o'rganish imkoniyati, umuman, davlatimizning intellektual salohiyatini yanada oshirish uchun yetarli darajada sharoit yaratiladi. O'z o'rnida, bunday imkoniyatlar xalq farovonligi, mamlakat taraqqiyot garovi hisoblanadi. Prezidentimiz ta'kidlanganidek, "Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
2. Qudratov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.
3. Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.
4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3